



BANK AKTIVLARINI BOSHQARISHNING NAZARIY JIHATLARI

THEORETICAL ASPECTS OF BANK ASSET MANAGEMENT

**¹Baxriddinov
Sharofiddin**

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti

Annotatsiya Annotation

Uzb - Mazkur maqolada bank aktivlarining mazmun mohiyati va ularni samarali boshqarishning nazariy jihatlarini va o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan. Shuningdek, tijorat banklarida aktivlarini boshqarish amaliyoti tahlil qilingan.

Eng - This article explores the essence and meaning of bank assets, as well as the theoretical aspects and specific features of their effective management. In addition, the practice of asset management in commercial banks is analyzed.

Kalit so'zlar:
Keywords:

❖ *tijorat banklari, aktiv, passiv, likvidlik, foiz stavkasi.*
❖ *commercial banks, assets, liabilities, liquidity, interest rate.*

Kirish.

O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish va uni transformatsiyalashuvi sharoitida banklarning xususiylashtirilishi, tijorat banklarida davlat ulushini qisqartirish borasida islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmonida yirik tijorat banklarining tarmoqdagi zamonaviy talablarga muvofiq transformatsiya jarayonlarida ortda qolayotganligi, korporativ boshqaruv standartlari, axborot texnologiyalari mahsulotlari, aktivlar va passivlarni boshqarish, mijozlar bilan aloqa qilish bo'yicha zamonaviy usullarni amaliyotga joriy qilishda kechikayotganligi [2] qayd etilgan bo'lib, mazkur holat banklar oldida jiddiy muammolar mavjudligini ko'rsatib bermoqda.

Shuningdek, banklar faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish

orqali masofaviy bank xizmatlarini, xususan, kontaktsiz to'lovlar qamrovini kengaytirish banklarning raqamli transformatsiyasini jadallashtirishga, shuningdek, mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati va tezkorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, bank aktivlaridan samarali foydalanish hamda mijozlar bazasini kengaytirish imkonini yaratadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Amerikalik mashhur iqtisodchi Dj.Sinki banklarning aktivlari va passivlarini boshqarishni uchta bosqichda boshqarish lozimligini ta'kidlaydi [4]. Dastlabki bosqichda bank aktivlarini strategik boshqarish vazifalari amalga oshiriladi. Ikkinchi bosqichda aktivlar tarkibi aniqlashtiriladi. Ushbu bosqichda likvidlikni ta'minlash, kredit portfelini hamda boshqa aktivlar portfelini samarali boshqarish choralari belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Uchinchi bosqichda esa erishilgan moliyaviy natijalar asosida bank faoliyatining

umumiy samaradorligini tahlil qilish va baholash ishlari amalga oshiriladi.

Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari natijasida shakllanadigan portfelini boshqarishda turli chora-tadbirlar va usullardan foydalaniladi. Banklar faoliyatida aktivlarni boshqarish konsepsiyasi XX asrning 1960-yillarida AQShda shakllangan bo'lib, dastlab u asosan foiz stavkalaridagi o'zgarishlar bilan bog'liq risklarni boshqarishga qaratilgan edi [5]. Mazkur davrgacha tijorat banklari faoliyatida aktivlar va passivlarni boshqarishga doir ayrim alohida mexanizmlardan foydalanilgan, biroq ularning qo'llanilishi tizimli va kompleks xarakter kasb etmagan.

Taniqli iqtisodchi olim P. Rouzning ta'kidlashicha, banklarda aktiv va passivlarni boshqarish mohiyati bank balansi tarkibining strategik rivojlanish dasturlari bilan muvofiqlashtirishga qaratilgan boshqaruv strategiyasini shakllantirish va uni amaliyotga tatbiq etish jarayonida namoyon bo'ladi [6].

Pejman Peykan tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda banklarning aktiv va passivlarini boshqarish, odatda, turli iqtisodiy sharoitlarda aktiv va passivlarni rejalashtirish jarayoni sifatida talqin qilinadi. Mazkur boshqaruvning asosiy maqsadi bank balansining muhim parametrlarini optimallashtirish orqali sof foydani maksimal darajada oshirish va risklarni minimallashtirishdan iborat [7]. Tadqiqotchilar ushbu maqsadlarga erishish uchun balans parametrlarining optimal qiymatlariga ega bo'lishni ta'minlaydigan chiziqli matematik modelni ishlab chiqqanlar. Ushbu model bank balansining strukturasi, tizim cheklovlari hamda tartibga soluvchi talablarni hisobga olgan holda yaratilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 13-iyundagi "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi

nizomga muvofiq, bank aktivlari - kredit, mikroqarz, overdraft, lizing, faktoring, qimmatli qog'ozlar, investisiyalar, boshqa banklardagi mablag'lar, olinishi lozim bo'lgan hisoblangan va (yoki) undirilmagan foizli va foizsiz daromadlar, bankning boshqa xususiy mulklari, bo'lib-bo'lib to'lash shaklida sotilgan mulklar, balansdan tashqari moddalar (chaqirib olinmaydigan kredit majburiyatlari, foydalanilmagan kredit liniyalari, akkreditivlar, kafolatlar) hamda kredit tavakkalchiligi mavjud bo'lgan boshqa aktivlar va balansdan tashqari moddalardan iborat [3].

Tijorat banklari kassali aktivlari o'z ichiga bankning aylanma kassasidagi naqd pullarni, bankning Markaziy bankdagi «Nostro» vakillik hisobvarag'idagi mablag'larni, bankning boshqa banklardagi «Nostro» vakillik hisobvaraqlaridagi mablag'larni va inkassatsiya jaaryonidagi pul mablag'larini oladi.

Tijorat banklarining kassali aktivlari tarkibiga bank aylanma kassasidagi naqd pullar, Markaziy bankdagi "Nostro" vakillik hisobvarag'idagi mablag'lar, boshqa banklardagi "Nostro" hisobvaraqlardagi mablag'lar hamda inkassatsiya jarayonidagi pul mablag'lari kiradi. Mazkur aktivlar tijorat banki aktivlari tarkibida likvidlik darajasiga ko'ra eng yuqori o'rinni egallaydi. Biroq, ular daromad keltirmasligi sababli, banklar kassali aktivlarning ma'lum optimal darajasini saqlashi zarur bo'ladi. Bu daraja aktivlar daromadlilikiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan miqdorda belgilanishi lozim.

Bizning fikrimizcha, tijorat banklarining kassali aktivlariga xos bo'lgan asosiy xususiyatlar quyidagilardan iborat:

a) kassali aktivlarning likvidlilik darajasi yuqori bo'lganligi sababli ularning daromadlilik darajasi sezilarli darajada pastdir.

b) bank kassali aktivlari moliya bozorlari rivojlanmagan mamlakatlarda tijorat banklari balansining likvidlilikini ta'minlash imkonini beradigan aktivlar guruhi hisoblanadi.

v) banklardagi kassali aktivlar mamlakatdagi iqtisodiy vaziyat va moliya bozorlari segmentlaridagi o'zgarishlarga nisbatan ta'sirchan bo'lgan aktivlar hisoblanadi.

Tijorat banklarining aylanma kassasidagi naqd pullar xalqaro bank amaliyotida daromad keltirmaydigan aktiv hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, tijorat banklarining Markaziy bankdagi «Nostro» vakillik hisobvaraqlarining qoldiqlari ham daromad keltirmaydi, chunki dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida Markaziy banklar mazkur hisobvaraqlarining qoldiqlariga foiz to'lamaydi.

Tijorat banklarining kassali aktivlari tarkibida mavjud bo'lgan boshqa banklardagi "Nostro" vakillik hisobvaraqlari qoldiqlari bank uchun muayyan xarajatlarni yuzaga keltiradi. Chunki, banklar «Nostro» vakillik hisobvaraqlarini yuritganligi uchun komission to'lov oladilar. Tijorat banklarining inkassatsiya jarayonidagi pul mablag'lariga kelsak, ularning daromadlilik darajasi juda past bo'lib, bu holat komission to'lov stavkasining past ekanligi bilan izohlanadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchiligida moliya bozorlari zaif rivojlangan bo'lib, bu holat tijorat banklarining likvidligini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanmaganligi tijorat banklari aktivlarining yuqori likvidli qimmatli qog'ozlar hisobidan shakllantirish imkonini bermaydi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida aktivlarni boshqarishning tashkiliy-huquqiy jihatlari amaldagi qonunchilik hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining normativ-huquqiy me'yorlari, shuningdek, har bir bankning ichki siyosati va reglamentlari asosida tartibga solinadi hamda muvofiqlashtiriladi. Ushbu yondashuv bank faoliyatida aktivlarni samarali va barqaror boshqarishning institutsional asoslarini shakllantiradi hamda tizimli nazoratni ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunining 5-moddasida tijorat banklarida aktivlarni boshqarish bo'yicha asosiy yo'nalishlar belgilab berilgan. Ushbu huquqiy me'yorlarga ko'ra, banklar qimmatli qog'ozlarni chiqarish, ularni sotib olish va sotish, hisobini yuritish, saqlash hamda mijoz topshirig'iga asosan boshqarish va ularga oid boshqa operatsiyalarni amalga oshirish huquqiga ega [1].

Banklar faoliyatida aktivlar portfelini mustaqil boshqarish huquqi O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunining 8-moddasida mustahkamlab qo'yilgan. Mazkur moddaga muvofiq, tijorat banklari moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish, shu jumladan, kredit portfeli va aktivlarini shakllantirish bilan bog'liq qarorlarni qabul qilishda mustaqildir [1]. Banklar aktivlar portfelini shakllantirish va boshqarishda mustaqil bo'lib, aktivlar tarkibini bank faoliyati xususiyatlari va strategiyasidan kelib chiqib shakllantiradi hamda boshqaradi.

Ushbu qonunning 38-moddasida "Banklar va bank guruhlariga rioya etish" talablari belgilangan. Mazkur moddaga asosan, banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash hamda omonatchilar va kreditorlarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida banklar va bank guruhlariga hisoblab chiqarish tartibi va yo'l qo'yiladigan qiymatlari Markaziy bank tomonidan belgilanadigan prudensial normativlarga rioya etishi shartligi belgilangan [1]. Bunda tijorat banklari faoliyatida bir qator muhim talab va cheklolarga rioya etilishi belgilangan. Jumladan, kredit tavakkalchiliklari va investitsiyalarning maksimal miqdori, ularning iqtisodiy sohalar bo'yicha to'planishi, bankning aloqador shaxslariga ajratiladigan kreditlar hajmi, ta'minotsiz (ishonchga asoslangan) kreditlar berishning eng yuqori chegarasi qat'iy belgilangan. Shuningdek, bank aktivlarini tasniflash va ularning sifatini baholash, ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxiralarni

shakllantirish, bank aktivlari bo'yicha foizlarni hisoblash va ularni bank daromadlari tarkibiga kiritish tartiblari bo'yicha ham aniq me'yorlar keltirilgan. Ko'chmas mulk va boshqa mol-mulkni sotib olish va egalik qilishga doir talablardan tashqari, banklar o'z kapitali va likvid resurslarini yetarli darajada saqlab turishi, aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxiralarni shakllantirishi va aktivlar portfelining diversifikatsiyasini ta'minlashi zarur. Ushbu talablar bank aktivlari bilan bog'liq risklarni minimallashtirish hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Odatda, mamlakatda iqtisodiy vaziyatning yomonlashuvi va iqtisodiy inqirozning yuz berishi kassali aktivlarga bo'lgan talabni keskin oshishiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, tijorat banklarining balansida kassali aktivlarning salmog'ini doimiy tarzda tebranishiga, ko'pchilik hollarda, ularni yetishmasligiga olib keladi. Bundan tashqari, milliy valyutaning qadrsizlanishi xorijiy valyutalardagi «Nostro» vakillik hisobvaraqlari qoldiqlarining nominal qiymatini o'sishiga, milliy valyutadagi «Nostro» vakillik hisobvaraqlari qoldiqlarining real qiymatini pasayishiga olib keladi.

Xulosa va takliflar.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, bank aktivlarini boshqarishda innovatsion yondashuvlar, tavakkalchiliklarni baholash usullari va qonunchilik asoslarining uyg'unlashuvi bank tizimining samaradorligini oshiradi. Shu bois, aktivlarni boshqarish konsepsiyasi bank strategiyasining ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda. Banklarda aktiv va passivlarni samarali boshqarish tizimi bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tizim orqali risk darajasini nazorat ostida ushlab turuvchi daromadli aktivlar tarkibi shakllantiriladi, moliyalashtirish xarajatlari minimallashtiriladi va sof foizli daromadlar oshiriladi. Natijada, bankning sof foiz marjasi optimal darajaga yetkazilib, umumiy rentabellik ko'rsatkichlari yaxshilanadi.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarining aktivlarini samarali boshqarish moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi va risklarni minimallashtirishga xizmat qiluvchi muhim strategik jarayondir. Zamonaviy sharoitda aktivlar va passivlarni birgalikda rejalashtirish, bank balansining optimal tarkibini shakllantirish hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish bank faoliyatining daromadlilik va likvidligini oshirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonuni, 05.11.2019 yildagi O'RG-580-son. <https://lex.uz/docs/4581969>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son «2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi farmoni. <https://lex.uz/docs/4811025>
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 13-iyundagi 14/5-son qarori bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015 yil 14 iyulda 2696-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan «Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida»gi nizom.
4. Синки Дж.Фи Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг / - Москва :Альп. Бизнес Букс, 2007. - 1018 с.
5. Лаврушин О.И. Банковский менеджмент. -М. КНОРУС, 2009. с. 308



6. Rose, P. S. *Bank management and financial services* / P. S. Rose, S. C. Hudgins. – 9th ed. – New York: McGraw-Hill Education, 2013. – 736 p.

7. Peykani P, Sargolzaei M, Botshekan MH, Oprean-Stan C, Takaloo A. Optimization of Asset and Liability Management of Banks with Minimum Possible Changes. *Mathematics*. 2023; 11(12):2761.